

BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARINING MATN BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV YONDASHUVNING O’RNI

Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi

Maxmudova Nigora Hikmatovna

Osiyo xalqaro universiteti talabasi

Shomurodova Farangiz

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o’quvchilarining matn bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishda kognitiv yondashuvning o’rni yoritilgan. Badiiy matnlarni o’qish va tushunish jarayonida o’quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur, mantiqiy mushohada yuritish kabi kognitiv ko’nikmalarni rivojlantrishning samarali usullari tahlil qilingan. Shuningdek, o’qish darslarida zamонавиј pedagogik texnologiyalar asosida matn bilan ishlashga oid topshiriqlarni tashkil etish yo’llari ko’rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, matn bilan ishlash, kognitiv yondashuv, o’qish fani, tafakkur, kompetensiya.

Abstract: This article discusses the role of the cognitive approach in the formation of primary school students' competence in working with text. Effective methods for developing cognitive skills such as attention, memory, thinking, and logical reasoning in students during the process of reading and understanding literary texts are analyzed. Also, ways of organizing tasks for working with text in reading lessons based on modern pedagogical technologies are considered.

Keywords: primary education, working with text, cognitive approach, reading science, thinking, competence.

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsiya davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. Ta’limni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida o’quvchi yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning mobil va ta’sirchan modellarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur dolzarb masalani qamrab olgan o’quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyat siyosiy iqtisodiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirot etishini ta’minlashga yo’naltirilgan islohotlar, innovatsion, integratsiyalashgan ilmiy loyihalar, xalqaro tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonida o’quvchilarning nafaqat savod chiqarishi, balki o’qilgan matnni anglab, tahlil qila olishi, o’z fikrini bayon eta olishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa o’qish fanining didaktik imkoniyatlaridan to‘g’ri foydalanish va matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantrishga yo’naltirilgan metodik yondashuvlarni talab etadi.

5-Aprel, 2025-yil

Ayniqsa, kognitiv yondashuv orqali o‘quvchilar tafakkurini faollashtirish, ularning fikrlash, tushunish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

ASOSIY QISM

Mamlakatimiz nufuzining rivojida yosh avlodning uzlucksiz ta’limni to‘laqonli egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod qachonki uzlucksiz ta’lim jarayonining xaqiqiy egasi sifatida ta’lim mazmunini o‘zi uchun katta ehtiyoj sifatida qabul qilib, his etsa shundagina ular nafaqat shaxsiy hayotda, balki ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarda ham faol ishtirokchiga aylanadi, o‘z o‘rni va mavqeini mustahkamlaydi. Savol tug‘iladi, o‘quvchi qachon ta’lim jarayonining egasi bo‘ladi . Qachon u ta’limni hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi? Bu savollarning amaliy yechimi shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga ta’rif va uning mohiyatini anglash bilan bog‘liqdir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘z nomi bilan ta’limtarbiya jarayoni markazida bola – o‘quvchi ekani bilan tavsiflanadi. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida bola shaxsining har tomonlama, ya’ni ham huquqiy, ham ma’naviy, ham ijtimoiy himoyasi ta’milanadi. Bolaning ta’limi, tarbiyasi, jismoniy, ma’naviy va ruhiy kamolini ta’minlash kabi umummilliy maqsadning ro‘yobga chiqishida uniing ta’limga qiziqishini oshirish asosiy omil hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim joriy etilgan muassasa o‘quvchi uchun quvonch maskanidir. Chunki, unda:

-bolaning turfa imkoniyatlarga yo‘naltirilgan, uning qiziqish istaklari bilan optimal darajada hisoblashadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

-ta’lim jarayonida har bir o‘quvchini tushunish va unga ishonish;

-o‘quvchi va ta’lim beruvchi o‘rtasida o‘zaro faol do‘stona munosabat o‘rnatalishini ta’minlash;

-ta’lim jarayoni zamonaviy yondashuvlardan, faol usullardan, axborot texnologiyalardan keng foydalanish kabi vazifalar ustuvor hisoblanib, vaqt, inson, moddiy resurslarning barcha imkoniyatlari shunga yo‘naltiriladi.

Demak, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra, yosh avlodning tez o‘zgarayotgan murakkab zamonga mos, davlat va jamiyat rivojlanishi uchun ko‘p qirrali, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy matnlar bilan ishslash nafaqat o‘qish texnikasini takomillashtirish, balki ularning ichki dunyosini boyitish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kognitiv yondashuv bu jarayonda asosiy rolni o‘ynaydi, chunki u o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi. Bu yondashuv asosida quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- O‘quvchilarning matnni tushunish darajasini oshirish;
- Matndan asosiy g‘oyani ajratish ko‘nikmasini shakllantirish;
- Savollarga mantiqiy javob qaytarish malakasini rivojlantirish;
- Matn asosida xuloslash, fikr yuritish faoliyatini faollashtirish.

Bu borada asosiy o‘rin egallaydigan metodik vositalar — mantiqiy savol-javoblar, klasterlar, konsept xaritalari, tafakkur xaritalari, dramatizatsiya usullari, “Insert”, “Fishbone”, “Piktochart” kabi texnologiyalardir.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo’llanildi:

- **Tahlil va taqqoslash** – boshlang‘ich ta’limdagi o‘qish darslari mazmuni va metodikasini o‘rganishda;
- **Pedagogik kuzatuv** – sinfdagi dars jarayonlarini tahlil qilishda;
- **Eksperimental ishlar** – o‘quvchilar bilan amaliy topshiriqlar bajarish orqali natijalarini aniqlashda;
- **So‘rovnama va suhbatlar** – o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan muloqot asosida kognitiv faoliyatga ta’sirni baholashda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda Vygotskiy, Piage, Bruner kabi psixolog va pedagoglarning kognitiv rivojlanishga doir g‘oyalari asos qilib olindi. Mahalliy olimlardan G‘.Yoqubov, D.Rasulova, Sh.Yo‘ldoshev, O.Soliyevalarning boshlang‘ich ta’limga oid ishlarida matn bilan ishlash, tafakkur va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha fikrlar muhim o‘rin egallaydi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishda kognitiv yondashuv o‘quv jarayonini mazmunan boyitadi va o‘quvchilarning tafakkuriy faoliyatini kuchaytiradi. Kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan o‘qish darslari bolalarda mustaqil fikrlash, izchil tushunish, tahliliy yondashuv va mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli zamonaviy o‘qituvchi bu metodik yondashuvni o‘z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 360-362.
2. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDА TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA QO’LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
3. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 386-388.
4. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 440-446.
5. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 447–452.
6. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 31-43.
7. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. *Multidisciplinary Journal of*

Science and Technology, 4(3), 164–170.

8. Hikmatovna, M. N. (2024). CONTENT OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 88-94.

9. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 453-460.

10. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 445-452.

11. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 436–444.

